



**TARBIYA FANIDA IJODKORLIK VA MUSTAQIL FIKRLASHNI
RIVOJLANTIRUVCHI USULLAR**

Egamberdiyeva Bonu

Urganch davlat pedagogika instituti

2- bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarbiya fani orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish usullari va bu jarayonda o'qituvchilarning tutgan o'rni va ahamiyati haqidagi qarashlar o'rin olgan. Bundan tashqari o'quvchilar turli muammoli vaziyatda qay darajada fikr bildirishlari mumkinligi haqidagi qarashlar ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: Ijodkorlik, mustaqil fikrlash, tarbiyaviy faoliyat, intellektual

Аннотация: В данной статье рассматриваются методы развития навыков самостоятельного мышления у учащихся через предмет воспитания, а также роль и значение учителей в этом процессе. Кроме того, представлены взгляды на то, насколько учащиеся способны выражать свои мысли в различных проблемных ситуациях.

Ключевые слова: Творчество, самостоятельное мышление, воспитательная деятельность, интеллектуальный.



Abstract: This article discusses methods for developing students' independent thinking skills through the subject of upbringing, as well as the role and significance of teachers in this process. Additionally, it presents views on how well students can express their thoughts in various problem-solving situations.

Keywords: Creativity, independent thinking, educational activity, intellectual.

Tarbiya fanida ijodkorlik va mustaqil fikrlashni rivojlantirish ta'lim jarayonining muhim yo'nalishlaridan biridir. Buning uchun dars jarayonida o'quvchilarning faolligini oshirish, ularning qiziqishlari va ehtiyojlarini inobatga olish lozim. O'quvchilar mustaqil fikrlashi uchun ularga erkinlik berish, savol-javob asosida fikrlash jarayonini yo'lga qo'yish muhim. Bu esa o'quvchilarni tayyor bilimlarni o'zlashtirishdan ko'ra, yangi bilimlarni mustaqil izlab topishga undaydi. Ijodiy yondashuvni rivojlantirish uchun amaliy mashg'ulotlar, loyihalar, hayotiy misollar va muammoli vaziyatlarni muhokama qilish kabi usullar samarali hisoblanadi. O'quvchilarga aniq javob berishni emas, balki turli yo'llarni topishni taklif qilish ularda ijodkorlik va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi. Masalan, biror axloqiy muammoni muhokama qilishda, turli nuqtai nazarlardan qarashni rag'batlantirish, rol o'yinlar orqali turli vaziyatlarni sinab ko'rish natijani yaxshilaydi. O'qituvchi o'quvchilarni mustaqil qaror qabul qilishga undashi, xatolar qilishdan qo'rqqanliklarini o'rgatishi kerak. Bu maqsadda baholash tizimi faqat aniq natijalarni emas, balki jarayonni ham qamrab olishi lozim. O'quvchilarning fikrini hurmat qilish, ularni erkin izlanishga undash va ijodiy tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash tarbiya jarayonining ajralmas qismi bo'lishi lozim. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar va interaktiv metodlardan foydalanish ham ijodiy fikrlashni rag'batlantiradi. Masalan, raqamli taqdimotlar, video lavhalar yoki kreativ yozuv mashg'ulotlari orqali o'quvchilarga o'z fikrlarini turli shakllarda ifodalash imkoniyati berilishi mumkin. Shu tariqa, tarbiya jarayoni



nafaqat nazariy bilim berish, balki shaxsiy rivojlanish va ijodiy tafakkurni shakllantirishga ham xizmat qiladi.

Tarbiya darsliklarida taqdim etilgan muammoli vaziyatlar, hikoyalarga o'quvchilarning munosabatini o'rganish keltirilgan yaxshi va yomon vaziyatlar orqali ularning o'z mustaqil qarashlarini o'rganish va buni rivojlantirish bolalarda tanqidiy fikrlashni oshiradi. Har bir o'quvchining dunyoqarashi, fikrlari turlicha bo'lganligi sababli keltirilgan muammoli vaziyatga turlicha yondashadilar. Bunday vaziyatda pedagoglar o'quvchilar fikrlarini hurmat qilgan holda vaziyatga o'z munosabatini bildirishi lozim. Mustaqil fikrlashni yuritish nutq va til orqali amalga oshiriladi hamda bir-biri bilan uzviylikda davom etadi. Har bir inson o'z faoliyatida o'zi aks ettirgan, sezgan, idrok qilgan, tasavvur etgan, eslab qolgan hodisalarning to'g'riligi, voqelikka mos tushishi yoki tushmasligini aniqlaydi. Bu fikrlashning mahsuli hisoblanadi. Respublikamizda amalga oshirilayotgan ta'lim sohasidagi islohotlarning maqsadi shaxsni yuqori darajadagi jismoniy, axloqiy, estetik va aqliy rivojlanishi uchun sharoit yaratishdir. Ta'lim jarayoni natijalari o'qituvchini ta'lim oluvchilar bilish faoliyati harakatini belgilovchi ish usullariga bog'liq. Ta'lim jarayonida insonning o'zaro muloqotga kirishishi, muomala qilishi, munosabat o'rnatishi natijasida fikrlash faoliyati astasekin shakllanib boradi. Ta'lim jarayonida o'qituvchi tomonidan interfaol metodlarning qo'llanishi, o'quvchilarning maqsadli harakatini yuzaga keltiradi. Buning oqibatida o'quvchining mustaqil fikrlashini aktiv darajaga ko'tarish mumkin. Interfaol inglizcha so'z bo'lib, "inter"- o'zaro va "act" harakat qilmoq ma'nolarni anglatib, o'zaro harakat qilmoq tushunchasi sifatida e'tirof etiladi. Interfaol o'qitishda o'quvchilarda axborotlarni o'zlashtirish jarayonida faollik, ijodkorlik, mustaqil fikrlashni shakllantiribgina qolmay, ta'lim maqsadini to'laqonli amalga oshirishga yordam beradi. Nutqning sharofati bilan fikrlash maxsullarining izchilligi, mantiqiyligi, tizimlilik, paydo bo'lgan, kelajak avlod uchun ma'naviy meros tariqasida qoldirish mumkin.



Tarbiya fanida ijodkorlik va mustaqil fikrlashni rivojlantirish jarayoni o'quvchilarning shaxsiy tajribasini hisobga olgan holda tashkil etilishi kerak. Har bir o'quvchi turli qobiliyat va qiziqishlarga ega bo'lgani uchun individual yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning tabiiy qiziqishlarini rag'batlantirish, o'z fikrlarini erkin ifodalashga imkoniyat yaratish ijodkorlikni rivojlantirishning samarali usullaridan biridir. Shuningdek, mustaqil fikrlashni shakllantirishda ochiq savollar berish, o'quvchilarni muammoli vaziyatlarga duch kelishga va ularni mustaqil hal qilishga o'rgatish muhimdir. Masalan, hayotiy voqealar yoki tarbiyaviy masalalar asosida muhokama tashkil etish o'quvchilarni turli nuqtai nazarlarni ko'rib chiqishga undaydi. Muammoga faqat bitta to'g'ri javob emas, balki turli yondashuvlar orqali yechim topish mumkinligini tushuntirish orqali ularda mustaqil tahlil qilish ko'nikmalari shakllanadi. Bundan tashqari, ijodkorlikni rivojlantirish uchun turli amaliy mashg'ulotlar va innovatsion usullardan foydalanish tavsiya etiladi. Masalan, rolly o'yinlar, badiiy ijod (hikoya yozish, sahna asarlari yaratish), vizual san'at (rasm chizish, plakat tayyorlash), dizayn va loyiha asosidagi topshiriqlar o'quvchilarga o'z fikrlarini erkin ifodalash imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, guruhli ishlash orqali o'quvchilar o'zaro fikr almashish, muhokama yuritish va yangi g'oyalarni ilgari surish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Interaktiv ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ham ijodiy va mustaqil fikrlashni shakllantirishga xizmat qiladi. Masalan, turli onlayn platformalar, taqdimot dasturlari, animatsiyalar yoki videolar orqali o'quvchilarga mavzularni mustaqil o'rganish va o'z kuzatishlarini tahlil qilish imkoniyati berilishi mumkin. Shu bilan birga, o'quvchilarni mustaqil tadqiqot olib borishga undash, ularga erkin tanlov berish ham ijodiy tafakkurni rivojlantirishga yordam beradi. Tarbiyaviy faoliyatda ijodiy metodlardan foydalanish o'quvchilarga o'z qobiliyatlarini rivojlantirish va yangi yondashuvlarni sinab ko'rish imkonini beradi. Bunday yondashuv nafaqat ularning bilim olish jarayonini qiziqarli qiladi, balki kelajakda mustaqil va innovatsion fikrlovchi shaxs bo'lib shakllanishlariga ham zamin yaratadi. O'qituvchilarning asosiy vazifasi esa



o'quvchilarga qo'llab-quvvatlovchi va rag'batlantiruvchi muhit yaratib berishdir. O'qituvchi yangi mavzuni boshlashdan oldin o'quvchilardan bu mavzu haqida qanday ma'lumotga ega ekanliklari bilan qiziqish, yangi mavzuda nimalar haqida gaplashilishi kerakligi haqidagi o'quvchilarning tahminlarini bilish ham ularda fikrlashni oshirishga yordam beradi. O'quvchilarda mustaqil fikrlashni oshirishning samarali usullaridan biri bu muammoli vaziyat bilan ularga murojaat qilish. Masalan, quyidagi vaziyatga o'quvchilarning munosabati qanday bo'lishi mumkinligini ko'rib chiqsak.

Muammoli vaziyat:

Sinfda quyidagi savol muhokama qilinmoqda:

"Agar dunyoda barcha texnologiyalar birdaniga yo'qolib qolsa, insonlar qanday yashashi mumkin? Qanday muammolar paydo bo'ladi va ularni qanday hal qilish mumkin?"

O'quvchilarning fikrlashi va muhokamasi:

Muammoni tushunish:

Texnologiyalarsiz hayot qanday bo'lishini tasavvur qilishadi.

Kundalik hayotda texnologiyalar qanchalik muhim ekanini muhokama qilishadi.

Muammoga ijodiy yondashuv:

Texnologiyalarsiz yashashning ijobiy va salbiy tomonlarini aniqlashadi.

Eski usullar (dehqonchilik, pochta orqali muloqot, kitoblarda ma'lumot izlash) qayta tiklanishini muhokama qilishadi.

Mustaqil fikrlash:

Texnologiyalarni tiklash yo'llarini taklif qilishadi.



Insonning tabiiy resurslardan qanday foydalanishi kerakligini muhokama qilishadi.

Xulosa: Texnologiyalarning inson hayotidagi oʻrni va ularni meʼyorida ishlatish muhimligi haqida fikr yuritadilar. Oʻzlarining innovatsion gʻoyalarini taklif qilishadi (masalan, energiyani qayta tiklash usullari, texnologiyalarsiz muqobil hayot tarzlar). Bu muammo oʻquvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish, ijodkorlikni oshirish, va muammolarni mustaqil hal qilish qobiliyatini shakllantirish uchun juda foydali boʻladi. Mustaqil fikrning mavjudligi va rivojlanishi koʻp jihatdan oʻquvchilarning erkinlik darajasiga bogʻliq. Mustaqil fikrlashni shakllantirish va rivojlantirish uchun oʻquvchilarning individual va jomoaviy darajada erkinligiga erishish zarur. Chunki “mustaqil fikrlash shaxsning hislati sifatida har qanday faoliyat turida individual va jamoaviy yutuqlarga erishishda yuqori koʻrsatkichni taʼminlaydigan muhim omillardan biri boʻlib qoladi”. Shu bilan birga, “mustaqil fikrlash jamiyat insonga yaratib bergan imkoniyat va erkinliklarning mahsuli va inikosidir”. Fikrlash esa, shaxs bilish faoliyati jarayoni boʻlib, voqelikni bevosita va umumlashgan xolda aks ettirish bilan xarakterlanadi. Fikrlash fanlararo tadqiqotlarni, kompleks fanlarni oʻzida mujassamlashtiradi. Falsafa materiya bilan bogʻliqlikda fikrlash yordamida dunyoni bilishning yoʻllari va imkoniyatlarini oʻrganadi. Mantiqiy fikrlashning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev yoshlar haqida " Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og'ishmasdan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko'taramiz. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech bir sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuchini safarbar etamiz" deb aytishlari ham bejiz emas. Yurtimizning kelgusi hayoti bo'lajak talaba yoshlar qo'lidadir.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi. O'quv qo'llanma. / R. Mavlyanova, N. Raxmanqulova. - Toshkent. Voris nashriyoti, 2013
2. Karimov Sh. (2021). "Ta'lim jarayonida interaktiv metodlarning ahamiyati".
3. Innovatsion pedagogika va ta'lim texnologiyalari to'plami, №2